


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



ARUZ VA POETIKA ASOSLARI

(2-kurslar uchun)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	
			III	IV
1	Ma'ruza	20	8	12
2	Seminar	20	8	12
3	Amaliy	50	18	32
4	Mustaqil ta'lim soati	90	60	30
5	Umumiy auditoriya soati	90	34	56
6	Umumiy o'quv soati	180	64	116

Fanning ishchi dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida ishlab chiqilgan va institut Kengashida tasdiqlangan (2021-yil 28-iyundagi 11-sonli majlis bayonnomasi) fan dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: Allamberganova N. – Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Taqrizchilar: Tashanov K. – Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Bekchanova S. – Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ishchi fan dasturi Turkiy tillar fakulteti kengashining 2021-yil “28”- may dagi 10 - sonli bayonnoma bilan ma’qullandi.

Fakultet kengashi raisi:  B. Davletov

Ishchi fan dasturi O‘zbek adabiyoti kafedrası majlisida muhokama qilinib, “26”- may dagi 10 - sonli bayonnoma bilan tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri:  S. Matyakupov

Ishchi fan dasturi Nukus davlat pedagogika instituti O‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil “28” 06 dagi 11 - sonli qarori bilan tasdiqlangan.

1.O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Mumtoz poetikaning asosini ilmlar uchligi tashkil etadi. Bular: ilmi aruz, ilmi badi' hamda ilmi qofiyadir. Adabiyotimiz tarixida bu uch ilm birgalikda mumtoz she'rning nafosati va shoirning salohiyatini belgilovchi mezon hisoblangan. Ular orasida aruz ilmi nisbatan murakkab hisoblanib, uni yaxshi bilmaslik mumtoz janrlarda yaratilgan badiiy namunalar mohiyatini anglashda qiyinchilik tug'diradi. Shu ma'noda "Aruz va poetika asoslari" fani aruz vazni va uning qoidalari, aruzda yozilgan asarlarning o'lchovini aniqlash yo'llari, aruz tizimining o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni, mumtoz janrlar va ularning badiiyati, ilmi badi' va ilmi qofiya bo'yicha aniq va muhim ma'lumotlarni talabaga yetkazishda belgilovchi asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili va adabiyoti ta'limini yo'lga qo'yishda ushbu fan alohida ahamiyat kasb etadi.

"Aruz va poetika asoslari" asosiy umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

"Aruz va poetika asoslari" fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalarining bilimlarini mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokini o'stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad aruzning nazariy asoslarini o'rganish, ushbu o'lchovda bitilgan she'riy asarlarni tahlil qilish, mumtoz janrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ilmi badi' va ilmi qofiya haqida ma'lumot berishdir. Talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatishdan iborat.

"Aruz va poetika asoslari" fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar. **Talaba:**

- aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlari, aruz tarixi haqida, aruz vaznining nazariy asoslari, qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning bir-biridan farqi, rukn va bahr tushunchalari, musta'mal bahrlar; mumtoz she'r shakllari, badiiy san'atlar, qofiya ilmi haqida **bilimga ega bo'lishi;**
- taqti' va uning qoidalari, bahrlar va ularning tarkibiy tuzilishi, bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan bahrlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, turkiy she'riyatda faol qo'llanilgan ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib bahrlarida yozilgan she'rlarning taqti'ni belgilay olish, turli asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, mumtoz aruzshunoslik asoslari; baytli va bandli she'r shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar, mumtoz qofiya turlari haqida bilim va **ko'nikmalarga ega bo'lishi;**
- Mumtoz she'riy asarlar doirasida badiiylik mohiyati, mumtoz she'r nav'lari, badiiy san'atlar, qofiya va uning turlari haqida umumiy tasavvur hosil qila

olishi, mumtoz she'riyatda istifoda etilgan janrlarning badiiyatini belgilay olishi, aruzda yozilgan she'rlarni ifodali o'qiy olish *malakasiga ega bo'lishi zarur.*

2. Ma'ruza mashg'ulotlari

1- jadval

№	Ma'ruza mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
III semestr		
1.	Aruz tizimi haqida umumiy ma'lumot. Aruzning nazariy asoslari	2
2.	Aruzda rukn va bahr tushunchasi	2
3.	Bir xil asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar. Rajaz va mutaqorib bahrlari	2
4.	Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar	2
III semestr bo'yicha jami		8

№	Ma'ruza mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
IV semestr		
1	Mumtoz poetika haqida umumiy ma'lumot. Balog'at ilmi.	2
2	Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari	4
3	Ilmi badi' yoki badiiy san'atlar talqini	4
4	Ilmi qofiya haqida ma'lumot	2
IV semestr bo'yicha jami		12

Maruza mashg'ulotlari multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tiladi. O'quv ma'lumotlarining sifati va samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi quyidagi intelfaol usullardan klaster, aqliy hujum, T-sixema, baliq skleti, konsentual jadval, benn-diogrammasi, keys-stadi, kabilardan keng foydalanadi.

2. Amaliy mashg'ulotlar

2- jadval

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Dars soatlari Hajmi
III semestr		
1	Aruzning asosiy birliklari. Bo'g'in va hijo tushunchalari.	2
2	Aruzda rukn va bahr. Asliy va tarmoq ruknlar.	2
3	Ramal bahri va uning musamman vaznlari.	2
4	Ramal bahrining musaddas vaznlari.	2
5	Hazaj bahri va uning musamman vaznlari.	2

6	Hazaj bahrining musaddas vaznlari.	2
7	Rajaz bahri vaznlari	2
8	Mutaqorib bahri vaznlari	2
9	Mutadorik va komil bahri vaznlari	2
III semestr bo'yicha jami		18

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Dars soatlari Hajmi
IV semestr		
1	Baytli she'r shakllari. G'azal va uning turlari.	4
2	Qasida va mustazod janrlari.	4
3	Kichik lirik janrlar badiiyati.	4
4	Musammatlarning shakliy xususiyatlari. Mustaqil va tazmin musammatlar.	4
5	Tarji'band, tarkibband, masnaviy, soqiynoma.	4
6	Badiiy sanatlar tasnifi. Lafziy san'atlar.	4
7	Ma'naviy san'atlar. Qorishiq san'atlar.	4
8	Mumtoz adabiyotda qofiya turlari	4
IV semestr bo'yicha jami		32

Amaliy mashg'ulotlari multimediya qurilmalari va boshqa qurilmalar va boshqa texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarni olib boorish usullari turli tuman ko'inishda bo'lsa-da, faol va interfaol metodlar ko'proq qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, mashg'ulotlar davomida amaliy vaziyatlar, muomoli topshiriqlar, "Keys-stadi" texnologiyalari o'qituvchi tomonidan beriladi. Ko'rgazmali materiallar va axborot multimediya qurilmalari yordamida uzatiladi.

3. Seminar mashg'ulotlar

3 - jadval

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Dars soatlari Hajmi
III semestr		
1	Vasl, imola va taslim hodisalari.	2
2	Ruboiy vaznlari	2
3	Ruboiy vaznining axrab shajarasi.	2
4	Ruboiy vaznining axram shajarasi.	2
III semestr bo'yicha jami		8

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Dars soatlari Hajmi
IV semestr		

1	Xafif va sari' bahri vaznlari.	2
2	Mujtass bahri vaznlari.	2
3	Muzori' bahri vaznlari.	2
4	Munsarih bahri vaznlari.	2
5	Tavil va ariz bahrlari.	2
6	Mumtoz aruzshunoslik asoslari.	2
IV semestr bo'yicha jami		12

Seminar mashg'ulotlari multimediya qurilmalari va boshqa qurilmalar va boshqa texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarni olib boorish usullari turli tuman ko'rinishda bo'lsa-da, faol va interfaol metodlar ko'proq qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, mashg'ulotlar davomida amaliy vaziyatlar, muomoli topshiriqlar, "Keys-stadi" texnologiyalari o'qituvchi tomonidan beriladi. Ko'rgazmali materiallar va axborot multimediya qurilmalari yordamida uzatiladi.

4. Mustaqil ta'lim

4-jadval

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
III semestr		
1.	"Aruz va poetika asoslari" fanining maqsad va vazifalari.	2
2.	Bo'g'in va hijo tushunchalari. Vasl, imola va taslim hodisalari qo'llanilgan baytlar tahlili.	4
3.	Ramal bahrining musamman vaznlari tahlili (Maktab darsliklaridagi she'rlar asosida).	4
4.	Ramal bahrining musaddas vaznlari tahlili (Maktab darsliklaridagi she'rlar asosida).	4
5.	Hazaj bahrining musamman vaznlari tahlili (Maktab darsliklaridagi she'rlar asosida).	4
6.	Hazaj bahrining musaddas vaznlari tahlili (Maktab darsliklaridagi she'rlar asosida).	4
7.	Ruboiy vaznlari tahlili (Maktab darsliklaridagi ruboiylar asosida).	4
8.	Rajaz bahri vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	4
III semestr bo'yicha jami		30

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
IV semestr		
1	Mujtass bahri vaznlari tahlili (Alisher Navoiy g'azallari	6

	asosida).	
2	Muzori' bahri vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	6
3	Alisher Navoiy "Xamsa"sining vazn xususiyatlari.	6
4	Ruboiy janri tahlili (Bobur ruboiylari misolida).	6
5	Tuyuq janri tahlili (Lutfiy tuyuqlari misolida).	6
6	Tuyuq va tajnis (Maktab darsliklaridagi she'rlar asosida)	6
7	Qit'a janri tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	6
8	Chiston tahlili (Navoiy va Uvaysiy chistonlari asosida).	6
9	Muxammas janri tahlili.	6
10	Musaddas janri tahlili.	6
	IV semestr bo'yicha jami	60

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlar tayyorlanayotganda ular e'tiborini ilg'or xorij tajribasi bilan mamlakatimizda psixologik xizmat, psixokorreksiyada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarning asoslarini bog'lash, tahlil etish, o'z fikrlarini hayotiy misollar bilan yoritilishiga yo'naltiriladi.

5. Tavsiya etilayotgan oraliq nazorat savollari

III semestr

1. Aruz ilmi nechanchi asrda vujudga kelgan?
2. Aruz ilmining asoschisi kim?
3. Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otkuncha uyqu kelmadi.
Yuqoridagi g'azal qaysi bahrning qaysi vaznida bitilgan?
4. Bir cho'ziq bo'g'indan iborat bo'lgan sabab nima deb ataladi?
5. Ikki qiska bo'g'indan tuzilgan sabab nima deb ataladi?
6. Sakkiz ruknning hammasi bo'lib necha xilgacha zihofga uchraydi?
7. Fa rukni qaysi zihofga duch kelishi bilan hosil bo'ladi?
8. Ko'rdum yuzingni devona bo'ldim
Aqlu hushumdan begona bo'ldim.
Bayt qaysi ruknlar asosida yozilgan?
9. Mustafilun ruknini izohlang.
10. «Shatar» zihofga uchragan mafoiylun qaysi bahrda ishtirok etadi
11. Saydning qyaya ber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek.
Bayt aruz vaznining qaysi bahr va ruknida yozilgan?
12. Sharq adabiyotidagi barcha ruboiylarda qo'llaniladigan tarmoq ruknlarni izohlang.
13. Sharq adabiyotidagi ruboiylar ishtirok etuvchi ruknlar jihatidan qaysi bo'laklarga bo'linadi?
14. Navoiy qalamiga mansub ushbu misol aruz vaznlaridan qaysi biriga to'g'ri keladi? «Soqiyo, hijron tunidur, boda tut».

- 15.«Sayding qo'yaber sayyod, sayyora ekan mandek». Keltirilgan misrada qanday ruknlar ishtirok etgan?
16. Sherning afoylilini toping.Qilur paykonlaring ko'nglum o'tin tez,
Agarcha patra bo'lmas shula angez.
- 17.She'ning afoylilini aniqlang!
Keldi ochilur chog'ing, o'zligin namoyon qil,
Parchalab kishanlarin, bog' ichida jovidan qil.
- 18.A.Navoiy «Farhod va Shirin» dostoni qaysi bahrda yozilgan?
- 19.Qaysi vaznda misralarning birinchi va uchunchi ruknlari mafoiylunning ashtar tarmog'i - foilunga teng bo'ladi?
- 20.Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznining tarmoq ruknlarini toping.
- 21.Mafulu mafoilun mafoiylu faal vaznini toping.
- 22.Fors-tojik allomasi A.Jomiyning qaysi asari aruzshunoslikka bag'ishlangan?
- 23.Furqatning aruz ilmiga doir risolasi kim tomonidan topilgan?
- 24.Ul shayxki, minbar uza afsunga berar tul
Shayton dur, o'zi, majlisining ahli suruk g'ul Bayt afoylilini toping.
- 25.Bir sabab va vatati majmu birikmasidan qaysi ruknlar vujudga keladi?
- 26.Vatad hamda fosilaning birikuvidan qaysi ruknlar maydonga keladi?
- 27.Mafoiylun va foilatun ruknlarining ketma-ket takrorlanishidan qaysi bahr yuzaga keladi?
- 28.Ne xayol edi yanakim ko'ngul qushi saydini havas aylading.
Ushbu misra chizmasini toping?
- 29.Foilotun va mustafilun ruknlarining birikib takrorlanishidan qaysi bahrlar tuziladi?
- 30.Mafoilun ruknining takrorlanishidan qaysi bahr hosil bo'ladi?

IV semestr

- 31.Vafo, bahor, so'zlarida qanday hijolar ishtirok etmoqda? Ularni izohlang
- 32.O'ta cho'ziq hijolarni izohlang, ularning ohang yaratishdagi vazifasini tushuntiring.
- 33.Musamman vaznlarning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
- 34.Mafoylun rukni hijolarining miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
- 35.Mafoylun rukni hijolarining sifat o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
- 36.Foilotun rukni hijolarining miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang
- 37.Foilotun rukni hijolarining sifat o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
- 38.Mafoylun rukni hijolarining ham sifat, ham miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
39. Foilotun rukni hijolarining ham sifat, ham miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
40. Mustafilun rukni hijolarining miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.

41. Mustafilun rukni hijolarining sifat o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
42. Foilun rukni hijolarining miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
43. Foilun rukni hijolarining sifat o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
44. Mustafilun rukni hijolarining ham sifat, ham miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
45. Foilun rukni hijolarining ham sifat, ham miqdoriy o'zgarishlarga uchrashi natijasida hosil bo'ladigan tarmoqlarni izohlang.
46. Vasl hodisasi va uning shery tizimdagi vazifasini tushuntirib bering.
47. Qisqa hijolarni izohlab bering.
48. Cho'ziq hijolar va ularning turlarini izohlang.
49. O'ta cho'ziq hijolar va ularning turlarini izohlang.
50. Sabablar va ularning turlari haqida malumot bering.

6. Tavsiya etilayotgan yakuniy nazorat savollari

III semestr

1. O'zbek aruziga xos xususiyatlarni izohlang.
2. Bahrlar haqida malumot bering.
3. Bir xil ruknning aynan takroridan paydo bo'ladigan bahrlarni izohlang.
4. Ikki xil ruknning navbat bilan takroidan tashkil topgan bahrlar haqida malumot bering.
5. Bitta bir xil, ikkita ikkinchi xil ruknlar qo'shiluvidan hosil bo'lgan bahr haqida gapiring.
6. Zihoflar va ularning vazifasi nimadan iborat?
7. Ruboiy vaznlarda ishtirok etuvchi tarmoq ruknlar haqida malumot bering.
8. Tuyuq tarkibida ishtirok etuvchi rukn va tarmoqlarni bilasizmi?
9. Hazaji musaddasi maqsur vaznini misollar asosida izohlab bering.
10. Hazaji musaddasi mahzuf vaznini misollar asosida izohlab bering.
11. Fitratning aruz nazariyasiga oid ilmiy faoliyati haqida gapiring.
12. A. Rutamovning «Aruz haqida suhbatlar» risolasi haqida malumot bering.
13. A. Navoiy va aruz shery tizimi haqida so'zlab bering.
14. Bobur va uning «Muxtasar» asari.
15. Mutadorik bahri haqida malumot bering.
16. Mutaqorib bahri va uning tarkibiy tuzilishi.
17. Hazaj bahri va tuzilishi haqida tushuntiring.
18. Ramal bahrining musaddas ko'rinishi vaznlari haqida malumot bering.
19. Olti ruknli hazaj vaznlari haqida tushuntiring.
20. Sakkiz ruknli hazaj bahri vaznlari haqida nimalarni bilasiz?
21. Mustahzod shery shaklining vaznini izohlang.
22. Axrab shajarali ruboiylar haqida malumot bering.
23. Axram shajarasidagi ruboiylarni izohlang.
24. Aruz va aruzshunoslikning ilk manbalari haqida nimalarni bilasiz?

25. Olti ruknli ramal vaznlarini tushuntirib bering.
26. Sakkiz ruknli ramal bahri ko'rinishlari haqida tushuncha bering.
27. Ruknlarning baytdagi o'rniga ko'ra nomlanishi haqida malumot bering.
28. Muzore bahrining tarkibiy tuzilishi haqida malumot bering.
29. Rajaz bahri tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
30. Rajaz bahrining murabba ko'rinishidagi vaznlar haqida tushuntiring.

IV semestr

31. Hafif bahri vaznlari haqida malumot bering.
32. Hafif bahri tarkibiy tuzilishi haqida tushuntiring.
33. Mujtass bahri vaznlarini tushuntiring.
34. Mujatass bahri tarkibiy tuzilishini izohlang.
35. Mafoiy lun rukni tarmoqlari normlarini izohlang.
36. Foilotun rukni tarmoqlari nomlarini izohlang.
37. Mafuvlotu rukni tarmoqlari haqida tushuntiring.
38. Munsarih bahrini yuzaga keltiruvchi ruknlar haqida tushuncha bering.
39. Sari bahri haqida nimalarni bilasiz?
40. Faqat musaddas ko'rinishli vaznlarni qanday izohlaysiz?
41. Fauvlun rukni tarmoqlari haqida gapirib bering.
42. Mutaqorib va uning vaznlari haqida tushuntiring.
43. O'n olti ruknli mutaqorib bahri vaznlari haqida gapirib bering.
44. Hozirgi o'zbek aruzshunosligi haqida nimalarni gapira olasiz?
45. Komil bahri va uning vazniy ko'rinishlari.
46. Hozirgi o'zbek shariyatida aruz shariy tizimi.
47. Qolmay shaharda toqatim, Qishloq chiqardim odatim.
Ushbu baytning bahri va vaznini aniqlang.
48. Sakkiz ruknli rajaz bahri ko'rinishlari haqida nimalarni bilasiz?
49. Muzore bahri vaznlari.
50. Mujtass bahri vaznlari

7. Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash va nazorat qilish me'zonlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentyabrdagi 3069 - son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentatsiyalar va boshqalar
Baholash mezonlari	<p>“5” baho (a'lo) talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qilsa, ijodiy fikrlay olasa, mustaqil mushohada yuritsa, olgan bilimni amalda qo'llay olsa, fan (mavzu) mohiyatini tushunsa, bilsa, ifodalay olsa, aytib bersa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'lsa, fanining mohiyatini tushuna olsa;</p> <p>“4” baho (yaxshi) talaba mustaqil mushohada yuritsa, olgan bilimni amalda qo'llay olsa, fan (mavzu) mohiyatni tushunsa, bilsa, ifodalay olasa, aytib bersa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'lsa;</p> <p>“3” baho (qoniqarli) talaba olgan bilimni amalda qo'llay olsa, fan mohiyatini bilsa, tushunsa, ifodalay olsa, fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lsa;</p>

	“2” baho (qoniqarsiz) fanning predmeti haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmasa; Aruz va mumtoz poetika fani mavzularini bilmasa.	
	Baholash turlari	Baholash
Joriy nazorat:		O‘tkazish vaqti
-Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentyabrdagi 3069 - son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” nizomga muvofiq	Semestr davomida
Oraliq nazorat:		Semestr davomida fan mavzulari 55%-60% bajarilgandan so‘ng
-ma‘ruza o‘qituvchisi tomonidan qabul qilinadi; -oraliq nazorat yozma ish shaklida olinadi; -oraliq nazorat mavzulari kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi; -yozma shaklda olingan oraliq nazorat javobi 3 kun ichida jurnal va elektron tizimda aks etilishi hamda talabalarga yetkazilishi shart. -talaba oraliq nazorat turidan “2” (qoniqarsiz) baho olsa, unga 2 (ikki) martagacha qayta topshirishga imkoniyat beriladi. - oraliq nazorat turini topshiraolmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi. - oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartibi buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi.		
Yakuniy nazorat		
- yakuniy nazorat turi otkaziladigan kuniga qadar talabalar joriy va oraliq ballari yig‘indisidan habardor bo‘lishi shart. - Tuzilgan va tasdiqlangan komissiya a‘zolari tomonidan qabul qilinadi. - mazkur fan bo‘yicha yakuniy nazorat semestrning oxirgi haftasi mobaynida o‘quv-uslubiy boshqarma tomonidan tuzilgan qat‘iy jadval asosida belgilangan auditoriyada og‘zaki shaklida o‘tkaziladi. - og‘zaki shaklda olingan yakuniy nazorat javobi shu kunning o‘zida jurnal, elektron tizim va qaydnomalarda aks etilishi hamda talabalarga etkazilishi shart.		semestr davomida ajratilgan soatlar to‘liq bajarilgandan so‘ng

**8. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari
Asosiy adabiyotlar**

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyotning ARM dagi shifri	Adabiyotning ARM dagi inventar raqami	ARMdagi soni	ARM imzosi
1	Yusupova D	Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari.	2019				
2	Yusupova D	Aruz alifbosi	2015				
3	Исҳоқов YO	Сўз санъати сўзлиги	2014				
4	Масбул муҳаррир Ш.Сирожиддинов	Алишер Навоий: комусий луғат. 1-2-жилдлар	2016				
5	Болтабоев Ҳ	Шарқ мумтоз поэтикаси	2008				
6	Носиров О., Жамолов С., Зиуовиддинов М.	Ўзбек классик шеърини жанрлари.	1979				
7	Орзибеков Р	Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусамман	1976				
8	Ҳожиаҳмедов А	Мумтоз бадиият малоҳати	1999				
9	Ноҗияҳмедов А	Aruz nazariyasi asoslari	2018				

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.
2. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ф.Фуллом, 1976.
3. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
4. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006
5. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998.
6. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademyashr, 2013. – 406 б.

Internet saytlari

1. <http://www.kutubxona.uz>
2. <http://www.literature.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. <http://www.alishernavoiiy.uz>